

KOMPYUTER TERMIN TIZIMINING KOGNITIV YONDASHUV
ASOSIDA TAHLILI**D.S.Saidkodiroya**O'zDJTU,
f.f.d., dotsent<https://doi.org/10.5281/zenodo.15813803>**Annotatsiya**

Ushbu maqolada kompyuter terminologiyasi tizimi kognitiv yondashuv asosida o'rganiladi. Kognitiv tilshunoslik nazariyasi asosida axborotni idrok etish, qayta ishlash va tushunish jarayonlari tilshunoslik obyektlari – terminlar orqali tahlil qilinadi. Kompyuter sohasida shakllangan atamalar inson tafakkuri va tushunchasining mahsuli sifatida ko'rib, ularning konseptual mazmuni, semantik tuzilishi hamda madaniy-mantiqiy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, kognitiv yondashuvning lingvistik terminologiyani tizimlashtirish va tahlil qilishdagi afzalliklari ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari kompyuter terminologiyasini chuqurroq anglash va uni tilshunoslik, tarjimashunoslik, informatika fanlari bilan bog'liq holda tahlil etishga imkon beradi.

Kalit so'zlar : kognitiv yondashuv, kompyuter terminologiyasi, konsept, semantika, tilshunoslik, axborot, tafakkur, termin tizimi.

Kompyuter terminologiyasiga maxsus leksikasining bir qismi sifatida qaraladi. I.L.Komleva ushbu so'z birikmasini «kompyuter tili» deb ataydi, ya'ni bu ta'rif bilan «mavzu sohasida shakllangan, texnologik jihatdan shaxsiy kompyuterlar va ular uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan maxsus til» sifatida e'tirof etadi¹.

Kompyuter sohasidagi terminlar ham boshqa soha terminlari kabi tavsiflanadi. Bu tavsiflarga qarab terminlarni turlarga ajratish mumkin. Terminlarni leksik birliklar sifatida quyidagi jihatlariga qarab tasnif qilish mumkin:

- shakli va tuzilishi;
- mazmuni va ahamiyati;
- etimologik xususiyatlari;
- ishlatilishidagi o'ziga xosliklar².

Internet terminologiyasi tizimi ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Terminlarni tahlil qilish natijasida shunday xulosaga keldikki, terminlar ham

¹Комлева И.Л. Принципы формирования русской компьютерной терминологии: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2006. – С. 6.

²Nasrulloeva N.S. O'sha asar, o'sha bet.

obrazlilik asosida hosil bo'ladi. Internet va kompyuter terminologiyasi quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) internetga oid tushunchalarning ochiqqligi;
- 2) tur va xilga ajratishda munosabatlar noaniq ifodalangan, ba'zi hollarda esa mavjud emas;
- 3) emotiv komponentlar evaziga murakkablashtirilgan;
- 4) umumiste'mol leksikasi asosida shakllantirilgan, bu qatlamning faol ta'siriga ega;
- 5) o'zlashmalar miqdorining ko'pligi;
- 6) lug'at zaxirasining tezkorlik bilan boyib borishi³.

Shu sababli, mutaxassislarning kasbiy vaziyatlarni qanday qabul qilishlari, ular qanday nuqtayi nazarga ega bo'lishlari va aniq faktlarga nisbatan diqqatlarini qaysi jihatlariga qaratishlarini ko'rib chiqish kerak. Nominasiya ma'lum bir lisoniy belgi orqali faqat nomni anglatmaydi, balki ma'lum bir mavhum tushunchani insonning bilish faoliyati natijasi sifatida ifodalaydi. Termin yana bir muhim vazifani, ya'ni definitiv vazifani ham bajaradi. So'z faqat ma'lum bir aniq tushunchaning ifodasi bo'lib qolmay, u balki mantiqiy ta'rif ifodasi ham sanaladi.

Kompyuter texnologiyalari va internet sohasida yangi vosita, texnika, dasturiy ta'minot, turli xizmatlarning paydo bo'lishi ularni nomlashga ehtiyoj paydo qiladi. Ma'lum bir tematik guruh misolida kompyuter sohasidagi termin tushunchalarining shakllantirish va tasniflash jarayonlarini ko'zdan kechiramiz:

Miqdoriy leksik ifodalash nuqtayi nazaridan «foydalanuvchi (subyekt)» asosiy tushunchasidir. Ushbu konsepsiyani ifodalaydigan terminlarning nisbatan kichik ulushi ingliz tilidagi ushbu tizim terminologiyasi va uning boshqa sohalaridan farqli ravishda, mazkur sohadagi mutaxassislarning texnik faoliyatini ifodalashga qaratilganligi bilan izohlanadi. Shunday bo'lsa-da, foydalanuvchi faoliyati bilan bog'liq ravishda mazkur sohada amalga oshiriladigan faoliyatning ayrim turlari va jihatlarini ifodalaydigan terminlar bilan kiritilgan.

«Tashqi ta'sir» tushunchasi agar tadqiq qilinayotgan soha uchun faqat asosiy tushunchalarni ajratish lozim bo'lsa, predmet sohasining terminologik tizimidagi qo'shimcha xarakteriga asosan, termin elementlarining yanada ozroq miqdori bilan ko'rsatiladi. Ushbu konsepsiya tarmoq dasturiy ta'minotining

³Саидкодирова Д.С. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик хусусиятлари: Фил фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) автореф. –Тошкент, 2018. – Б.12.

kompyuter terminologiyasi uchun bir qancha birliklar ichidan nomzod bo'ladi, deb taxmin qilish mumkin.

Subyekt va obyekt o'rtasida o'ziga xos «ko'prik» vazifasini bajaruvchi hodisalar va tushunchalar o'zaro solishtirilganda «vositachi» tushunchasi boshqa asosiy tushunchalar ichida minimal miqdordagi terminlar bilan ko'rsatilgan. Tadqiqot jarayonida biz mazkur tushuncha ifodalaydigan qurilma va texnik harakatlarini kompyuter va foydalanuvchi orasida mavjud tushunchalarga bog'lay olmadik. Chunki ushbu bloklar «vositachi» konsepsiyasi doirasida bog'lanish vazifasi jihatidan mutaxassislar tomonidan yaratilgan izolyasiya qilingan ayrim tushunchalarni ko'rsatadi. Dastlabki ikkita asosiy tushunchada qo'shimcha ulanish vazifasini nomlamasdan faqat kompyuterga taalluqli texnik qurilmalarga yoki foydalanuvchiga qarashli va ular subyektning mustaqil harakatlana olish qobiliyati bilan ifodalangan harakatlardir.

Kompyuter termin tizimining kognitiv yondashuv asosida tahlili holat quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan, ingliz tili flektiv til bo'lganligi sababli bir birlik ham fe'l, ham ot ham sifat-dosh shaklida kela oladi. O'rganilayotgan terminologik tizimning birliklari uchun bu bir vaqtning o'zida bir nechta ingliz kompyuter terminologiyasini turli xil asosiy tushunchalarga murojaat qilish imkoniyatini anglatadi. Masalan, fe'l funksiyasidagi open birligi hujjat yoki faylni ochish harakatini anglatadi va shuning uchun foydalanuvchi harakatlari bilan bog'liq bo'lib, atributiv funksiyada u umumiy foydalanish uchun mavjud bo'lgan elektron hujjatlarni o'qish standartini anglatadi. Bu uni tashqi sharoitlar guruhining elementi sifatida tasniflaydi.

Ikkinchidan, ba'zi terminologik elementlarning noaniqligi faktini aytib o'tish kerak, bu ham ularga turli xil asosiy tushunchalarni nomlash imkoniyatini beradi. Masalan: Flash card – flesh karta, control – nazorat, flick – siltash, folder – yig'uvchi papka, click – cvhertish, fix – o'rnatish, submit – tugallash, transfer – o'tkazma, chat – suhbatlashish, gigabyte – gigabayt, gigabit – gigabit, line – yo'l, hypertext – gipermatn, draft – qoralama varianti, server – server, system – tizim, switch – yoqmoq, packet – paket, Java – dasturlash tili, link – havola, access – ruxsat olish, mail – pochta, message – habar, user – foydalanuvchi, driver – drayver, network – tarmoq, recorder – ovoz yozib oluvchi, interface – interfeys, platform – platforma, profile – profil, domain – domen, route – marshrut, security – xavfsizlik, send – jo'natish, signal – signal, simple – oddiy, space – makon, splash – chayqalish, stream – oqim, telnet, terminal – yo'lakcha, throw – uloqtirmoq, time – vaqt, traffic – tafik, trash – axlat, voice – ovoz, web – to'r, wide



– keng, wireless – simsiz, zone – zona, analog – analog, automatic – avtomatik, anonymous – anonim, application – ilova, aspect – tarmoq, attack – hujum, desktop – ish stoli, banner – banner, basic – asosiy, baud – bod, block – chegara, bot – bot, bus – avtobus, byte – bayt, call – qo‘ng‘iroq, carrier – tashuvchi, channel – kanal, class – sinf, code – kod, common – umimiy va h.k.

Desktop – elementi bir qancha ma‘nolarni ifodalaydi: 1) ish stoli, ish stoli varianti, shaxsiy kompyuter korpusining asosiy qismlaridan biri va 2) ekran (interaktiv) muhit, «ish stoli» – bu bizga «kompyuter (obyekt)» (ya‘ni foydalanish) asosiy tushunchasining turli terminlar nominasiyasining elementlariga kiritish imkonini beradi; memeory – elementi 1) kompyuter xotirasi 2) internetda faoliyat yuritish jarayonida bajarilgan tshlarni xotirada saqlab qolish ma‘nolarini beradi.

Terminologik nominasiya termin yaratishning ongli jarayoni natijasi ekanligi bilan farq qiladi. Yangi terminlar insonning atrofdagi dunyoni chuqurroq tushunish va o‘rganish, shuningdek, o‘z bilim darajasini oshirish istagidan kelib chiqadi. Terminlar nafaqat obyektlar va hodisalarga murojaat qilish uchun xizmat qiladi, balki ular bizning fikrlash va dunyoni his qilish tarzimizni ham shakllantiradi. Bilishning har bir bosqichi tabiiyki, terminologiyada o‘z ifodasini topadi, u yangi paydo bo‘lgan tushunchalarga muvofiq o‘zgaradi va aniqlanadi, yoki obyektning mohiyatini ochib beruvchi unga mos terminlarni yaratadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidkodiroya, D. S. (2017). Ingliz va yzbek tilarida internet terminlarining lingvistik tadkiki. Filol. fanlari nomzodi... dis.
2. Tursunovich, S. E. (2022). Student engagement activities for captivating a classroom in teaching interactive and pragmatic skills. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 104-106.
3. Sadikov, E. T. (2021). Teaching pragmatic skills and abilities through activities. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(103), 1139-1141.
4. Tursunovich, S. E. (2021). Speech acts of refusals: Challenging the challenges. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2063-2067.
5. Saidkadirova, D. (2020). PHENOMENON OF RETERMINOLOGIZATION IN THE FORMATION OF INTERNET TERMS. Theoretical & Applied Science, (6), 106-110.
6. Saidkodiroya, D. (2020). DEVELOPMENT AND FUNCTIONS OF THE INTERNET TERMINOLOGY: ABBREVIATION AND NOMINATION. Philology Matters, 2020(4), 67-84.

7. Гафуров, Б. З. (2009). Роль сокращения фонемного состава слова в образовании сегментных фоновариантов существительных русского, узбекского и английского языков. Современные гуманитарные исследования, (6), 124-126.
8. Гафуров, Б. З. (2021). АНАЛИЗ ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ АКЦЕНТНЫХ ФОНОВАРИАНТОВ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ РУССКОГО ЯЗЫКА. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1-1).
9. Саидкодирова, Д. С. (2011). Лингвистические аспекты изучения лексики Интернета. Вестник Нижегородского университета им. НИ Лобачевского, (3-1), 356-360.
10. Saidqodirova, D. S. (2017). Linguistic study of Internet terms in English and Uzbek. Dis. PhD.
11. Ibrakhimovna, K. G. (2024). GAMES AS AN EFFECTIVE WAY OF DEVELOPING YOUNG LEARNERS' COMMUNICATIVE SKILLS. International Journal of Pedagogics, 4(03), 97-104.
12. Xamdamovna, I. M. (2022). Stylistic features of the use of asindetone in languages of different systems. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 30-33.
13. Tukhtaeva, K. (2023). Formation of Lexical Combinations in Media Texts. Finland International Scientific Journal of Education.